"O‘zEraeAlternator" MCHJ QK bosh direktorining
MUROJAATI

Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!

Jahonda eng og‘ir va jamiyat rivojlanishiga to‘siq hisoblangan transmilliy jinoyatlardan biri bu Korrupsiyadir. Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Jumladan, aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi, aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki, mamlakatdagi diniy va axloq qoidalarining buzilishi, befarqlik jamiyatning, ayniqsa kelajakda farzandlarimizning farovon o‘sishiga keskin o‘z salbiy ta'sirini ko‘rsatadi. Korrupsiya muammosi mamlakatlar hukumati va dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Respublikamiz ham ushbu muammodan xoli emas albatta. Jamiyatni bir a’zosi sifatida korxonamiz ishchi xodimlari ham befaraq bo‘lmasliklari, qarshi kurashda mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan korrupsion omillarga barham berishga qaratilgan keng ko‘lamli huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga faolroq javob qaytarishimiz lozim.

Bugunga kelib korxonamizda “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati” kabi 15 dan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki me’yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar qabul qilindi.

Korxonada ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan komplayens ichki nazorat tizimi joriy etildi, barcha ichki lokal hujjatlarimizda xavfni minimallashtirishga qaratilgan normalar kiritilib, amal qilinayotganligini alohida ta’kidlab o‘tmoqchi edim.

Jamoamiz, O‘zbekiston xalqi va hamkorlarimiz oldidagi korxonamizga yuklangan mas’uliyatni anglagan holda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishi va holatlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha sa’y harakatlar amalga oshirilmoqda.

«**O‘zEraeAlternator**» MCHJ QK o‘z navbatida, o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni vijdonan bajarilishi va qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishini kafolatlaydi.

Shunday ekan, Barchamiz korrupsion holatlarni oldini olish va unga chek qo‘yish uchun mas’ul ekanligimizni anglashimiz zarur.

Barchani, ayniqsa hamkasb va hamkorlarimizni ish yuritishda xalqaro standartlarga hamda korrupsiyaga qarshi tamoyillarga rioya qilishga va shubha tug‘ilgan taqdirda, ehtimoliy qonunbuzarliklar haqida bizga xabar berishga yana bir bor chorlab qolamiz.

Hurmat bilan,

Korxona bosh direktori _____**E. Otaqulov**